

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 422 sahifa.

2025-yil, 10-oktyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA KAMBAG'ALLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамолевна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидрахаловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLIVAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	355
Yusupov Farxod Adamboyevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI	359
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	363
Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	369
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	
RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RSIDA.....	374
Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA "XIZMATLAR IPOTEKASI" MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI	379
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЛЫВАНИИ ЛУКА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ.....	384
Суюнов Шохзодбек Мурод угли	
XORIJIY DAVLATLAR SANOAT IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI (YAPONIYA, KOREYA VA GERMANIYA MISOLIDA)	389
Mansurova Sayyora Baxtiyor Kizi	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI HISOBGA OLIISHDA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH	395
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	399
Muminov Sherzod Kholmirzaevich	
DIGITALIZATION OF AGRICULTURAL PRODUCTS FOR EXPORT	404
Azimov R.B.	
AHOLI JON BOSHIGA UMUMIY DAROMADLAR HAJMINI TREND MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH	409
Xolto'rayev Islom Ilhomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI BANDLIK SHAKLLARI	416
Sayipov Begzod Rahimovich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI BANDLIK SHAKLLARI

Sayipov Begzod Rahimovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

sayipovbegzod@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va uning mehnat bozoriga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida an'anaviy bandlik shakllari o'zgarib, yangi, moslashuvchan va innovatsion mehnat turlari paydo bo'lmoqda. Jumladan, masofaviy ish, frilanserlik, platformaviy bandlik, gig-iqtisodiyot, elektron xizmatlar va raqamli tadbirkorlik kabi yo'nalishlar aholining bandlik imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, mehnat munosabatlarini ham tubdan o'zgartirmoqda.

Tadqiqotda O'zbekiston misolida raqamli bandlikning rivojlanish omillari, mavjud muammolari va istiqbollari o'rganiladi. Xususan, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya dasturlari, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, onlayn mehnat birjalari hamda "ish.mehnat.uz" kabi platformalarning roli tahlil etilgan. Shu bilan birga, raqamli bandlikning huquqiy me'yorlari, soliqqa tortish tizimi va ijtimoiy kafolatlar bilan bog'liq masalalar ham yoritilgan.

O'rganish yakunida shakllantirilgan ilmiy xulosalar raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi bandlik shakllarini rivojlantirish, aholining raqamli ko'nikmalarini oshirish va mehnat bozorida barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kaliit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, bandlik, mehnat bozori, frilanserlik, platformaviy ish, gig-iqtisodiyot, masofaviy mehnat, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article explores the impact of the digital economy on labor market structures and the emergence of new forms of employment. The rapid spread of digital technologies has led to a transformation in traditional work patterns, giving rise to more flexible and innovative types of employment. Among these are remote work, freelancing, platform-based employment, gig work, online services, and digital entrepreneurship — all of which expand opportunities for individuals while reshaping labor relations in the modern economy.

Using Uzbekistan as a case study, the research examines the factors driving the development of digital employment, including state-led digital transformation programs, the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy, and the growing importance of online labor platforms such as ish.mehnat.uz. The paper also addresses legal, taxation, and social protection aspects associated with non-traditional forms of work in the digital age.

The conclusions drawn from this study present practical recommendations aimed at promoting digital literacy, strengthening the institutional framework for digital employment, and ensuring labor market stability in the context of the ongoing digital transformation.

Key words: digital economy, employment, labor market, freelancing, platform work, gig economy, remote work, digital transformation.

Аннотация: В статье рассматривается влияние цифровой экономики на структуру рынка труда и формирование новых форм занятости. В условиях активной цифровизации традиционные виды трудовой деятельности постепенно уступают место гибким, инновационным и удалённым форматам работы. К ним относятся фриланс, платформенная занятость, гиг-работа, онлайн-сервисы и цифровое предпринимательство, которые предоставляют населению новые возможности трудоустройства и самореализации.

На примере Узбекистана анализируются ключевые тенденции развития цифровой занятости, а также роль государственных программ, таких как «Цифровой Узбекистан – 2030», электронных бирж труда и онлайн-платформ (например, ish.mehnat.uz). Особое внимание уделено вопросам правового регулирования, налогообложения и социальной защиты работников в условиях новых форм занятости.

Выводы, полученные в ходе исследования, позволяют выработать практические рекомендации по развитию цифровых навыков населения, формированию устойчивой модели рынка труда и повышению эффективности государственной политики занятости в эпоху цифровой трансформации.

Ключевые слова: цифровая экономика, занятость, рынок труда, фриланс, платформенная занятость, гиг-экономика, удалённая работа, цифровая трансформация.



KIRISH

XXI asr boshlaridan boshlab jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi iqtisodiy tizim – raqamli iqtisodiyot tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlari inson hayotining barcha sohalarini, jumladan, mehnat bozori va bandlik tizimini ham tubdan o'zgartirmoqda. Bu jarayon natijasida an'anaviy ish shakllarining o'rnini masofaviy ish, frilanserlik, platformaviy bandlik va gig-iqtisodiyot kabi yangi bandlik shakllari egallab bormoqda.

Raqamli iqtisodiyotning keng rivojlanishi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirib, ish joylarini geografik va vaqt jihatdan cheklovlersiz tashkil etish imkonini yaratmoqda. Bugungi kunda inson o'z mehnatini ofisdan turib emas, balki istalgan joydan, istalgan vaqtda onlayn tarzda amalga oshirishi mumkin. Shu sababli bandlikning moslashuvchan shakllari jahon mehnat bozorining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyot so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli infratuzilmani kengaytirish, davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, axborot texnologiyalarini ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik sohalarida qo'llash bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Shu jarayonda yangi kasblar, startap loyihalar, onlayn xizmat ko'rsatish tarmoqlari va masofaviy ish imkoniyatlari shakllanmoqda.

Biroq raqamli bandlikning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, u bilan bog'liq muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Jumladan, frilanserlar va platforma xodimlarining mehnat huquqlarini himoya qilish, soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy himoya tizimini moslashtirish zarurati ortmoqda. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi bandlik shakllarini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy asoslarini tahlil etish dolzarb ahamiyatga ega.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLARNI TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot va yangi bandlik shakllari masalasi so'nggi yillarda iqtisodiy fanlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jahon miqyosida bu soha bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilib, ularning asosiy e'tibori raqamlashtirish jarayonining mehnat bozori tuzilmasiga, bandlik darajasiga va ishchi kuchi malakasiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Dastlab, M. Kastels (1996) "Axborot jamiyati" konsepsiyasida raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi iqtisodiy tuzilma inson mehnati mohiyatini o'zgartirishini ta'kidlagan. Unga ko'ra, axborot oqimlari, onlayn platformalar va virtual bozorlar mehnatning joy va vaqtga bog'liqligini yo'qotadi. Shuningdek, P. Drucker, T. Malone, E. Toffler kabi olimlar ham "bilim iqtisodiyoti" tushunchasini ilgari surib, intellektual mehnat va moslashuvchan bandlik shakllari raqamli asrning asosiy belgilaridan biri ekanini qayd etganlar.

So'nggi yillarda G'arb va Osiyo mamlakatlarida gig-iqtisodiyot (gig economy), platforma bandligi, masofaviy ish (remote work) kabi tushunchalar keng o'rganilmoqda. Masalan, Katz va Krueger (2019) tadqiqotlariga ko'ra, AQSh mehnat bozorining 35 foizga yaqini gig-iqtisodiyot ishtirokchilaridan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligi frilanserlar, mustaqil maslahatchilar yoki vaqtinchalik loyiha asosida ishlovchi mutaxassislardir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikning yangi shakllari, bir tomondan, iqtisodiy moslashuvchanlikni oshirsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy himoya va mehnat kafolatlarining yetarli emasligi muammosini yuzaga keltiradi. Bu borada OECD (2021) va Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda raqamli platformalarda ishlovchilar uchun ijtimoiy sug'urta tizimlarini qayta ko'rib chiqish zarurligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston olimlari ham bu masalaga e'tibor qaratmoqda. Jumladan, A. Vohidov, D. Tursunov, N. Xolboyeva va boshqalar o'z izlanishlarida raqamli iqtisodiyotning milliy mehnat bozoriga ta'siri, elektron bandlik tizimi, mehnat resurslarini raqamli boshqarish va "raqamli ko'nikmalar"ni rivojlantirish zarurligini asoslab berganlar. Ularning fikricha, raqamli platformalar orqali ish o'rinlari yaratish O'zbekiston sharoitida aholi, ayniqsa yoshlar va ayollar bandligini oshirishda samarali vosita bo'lishi mumkin.

Shuningdek, mahalliy iqtisodchilar tomonidan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining bandlik sohasiga ta'siri, "Ishga marhamat" monomarkazlari faoliyati, elektron mehnat daftarchasi tizimi va masofaviy kasbga tayyorlash dasturlarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ilmiy ishlanmalar olib borilmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bandlikning shakl va mazmunini o'zgartirmoqda. Endilikda ishchi kuchining qadri nafaqat jismoniy mehnatda, balki raqamli kompetensiyalar, ijodkorlik, innovatsion fikrlash va moslashuvchanlik kabi inson kapitali ko'rsatkichlarida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, yangi bandlik shakllarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ilmiy tahlil qilish, ularni milliy mehnat bozoriga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida shakllanayotgan yangi bandlik shakllarining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini o'rganish, ularning O'zbekiston mehnat bozoriga ta'sirini aniqlash hamda samarali rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash maqsad qilingan. Shu munosabat bilan tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy iqtisodiy tahlil yondashuvlari, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari hamda milliy statistika ma'lumotlariga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqotda dialektik, tizimli, tahliliy, taqqoslama va induktiv–deduktiv yondashuvlar qo'llanildi. Dialektik yondashuv raqamli iqtisodiyot jarayonlarining o'zgaruvchan mohiyatini, ularning mehnat bozori bilan o'zaro aloqasini aniqlashga xizmat qildi. Tizimli tahlil usuli orqali bandlikning yangi shakllari – masofaviy ish, frilanserlik, platformaviy bandlik va gig-iqtisodiyot elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning afzalliklari va cheklavlari o'rganildi.

Tadqiqotda empirik tahlil usullaridan keng foydalanildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) va Jahon banki ma'lumotlari asosida raqamli bandlikning rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi. Ma'lumotlar asosida 2020–2025 yillar oralig'ida mehnat bozorida raqamli ish o'rinlarining ulushi, yoshlar va ayollar bandligidagi o'zgarishlar, hamda platforma asosidagi ishlarning iqtisodiy samaradorligi o'rganildi.

Shuningdek, taqqoslama tahlil usuli yordamida O'zbekiston tajribasi rivojlangan mamlakatlar — AQSh, Janubiy Koreya, Estoniya va Hindistonning raqamli bandlik siyosati bilan solishtirildi. Bu orqali O'zbekiston sharoitiga mos keladigan institutsional va huquqiy mexanizmlarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda sotsiologik so'rov va ekspert intervyulari usullaridan ham foydalanildi. Ular orqali masofaviy ishlayotgan yosh mutaxassislar, frilanslar hamda IT-platformalarda faoliyat yurituvchi xodimlarning mehnat sharoitlari, motivatsiya omillari va duch kelayotgan muammolari aniqlab chiqildi. Olingan ma'lumotlar kontent-tahlil va statistik qayta ishlash usullari orqali umumlashtirildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot ilmiy nazariy yondashuvlar (Kastels, Drucker, Katz va Krueger nazariyalari) hamda milliy strategik hujjatlar ("Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi, "Aholi bandligini ta'minlash konsepsiyasi") bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borildi.

Shu tariqa, tadqiqot metodologiyasi yangi bandlik shakllarining iqtisodiy mohiyatini har tomonlama yoritish, ularning ijtimoiy natijalarini baholash va milliy mehnat siyosatiga integratsiya qilish uchun ilmiy asos yaratishga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot davrida sun'iy intellekt va bulutli hisoblash (cloud computing) kabi raqamli texnologiyalarning doimiy innovatsiyasi va keng tarqalishi korxonalarining ishlab chiqarish, boshqaruv, marketing, ilmiy tadqiqot va boshqa ko'plab faoliyat yo'nalishlarida ishlash tarzini tubdan o'zgartirdi. Ko'plab korxonalar raqobatbardoshligini oshirish maqsadida raqamli transformatsiya jarayoniga kirishar ekan, bu o'zgarishlarning ularning ishchi kuchiga ta'siri jiddiy e'tiborni torta boshladi. Goldman Sachs hisobotiga ko'ra, AQShdagi ish o'rinlarining taxminan uchdan ikki qismi sun'iy intellekt tomonidan avtomatlashtirilish xavfiga ma'lum darajada duch kelgan. Shu sababli, sanoatdagi raqamli transformatsiya jarayoni ommaviy ish o'rinlari qisqarishiga va "texnologik ishsizlik" xavfiga olib keladimi, degan savol jamoatchilikda keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, ChatGPT kabi generativ sun'iy intellektning so'nggi yutuqlari an'anaviy mehnat bozorini tubdan o'zgartirishi ehtimoli katta.

Mashhur iqtisodchi Jon Meynard Keyns (1930) o'z vaqtida insoniyat "texnologik ishsizlik" deb nomlangan yangi kasallikka duch kelayotganini ogohlantirgan edi. Shu vaqtdan beri texnologik taraqqiyot va bandlik o'rtasidagi munosabat uzoq yillar davomida bahsli va dolzarb mavzu bo'lib kelmoqda. Mexanizatsiya, elektrifikatsiya va axborotlashtirish bosqichlaridan keyin raqamlashtirish yangi sanoat inqilobining bosh yo'nalishiga aylangan hozirgi davrda, ko'plab tadqiqotlar raqamli texnologiyalar tarqalishining mehnat bozori o'zgaruvchanligiga ta'sirini turli nuqtai nazardan o'rganmoqda. Biroq, ularning natijalari hanzugacha noaniq va bir-biriga zid. Mavjud adabiyotlarning bir cheklovli jihati shundaki, ularning aksariyati raqamli texnologiyalarning bandlikka ta'sirini makroiqtisodiy darajada, ya'ni milliy yoki mintaqaviy mehnat bozori ma'lumotlari asosida nazariy modellar orqali tahlil qilgan. Faqat ayrim tadqiqotlar korxonalar misolida bandlikka ta'sirni o'rgangan bo'lsa-da, ularning o'lchov usullari asosan texnik indikatorlar yoki sanoat robotlari soniga tayanadi, bu esa aniqlik va qamrov jihatidan cheklavlarni keltirib chiqargan. Shuningdek, mavjud tadqiqotlar tarmoqlar, korxonalar va mehnat kuchi bo'yicha heterogen ta'sirlarni tizimli tahlil qilmagan. Masalan, aksariyat ishlar umumiy bandlik hajmidagi o'zgarishlarga e'tibor qaratgan bo'lsa-da, turli bo'limlar yoki lavozimlar kesimidagi farqlarni deyarli ajratmagan.

Raqamli texnologiyalar keng tarqalishi ishlab chiqarish miqyosini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini bersa-da, mavjud bandlik tuzilmasini hisobga olganda, ularning o'rnini bosish (substitutsiya)



ta'siri ayniqsa ishlab chiqarish tarmog'i va past malakali ish o'rinlari uchun keskin zarba berishi mumkin.

Birinchidan, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlarini tobora avtomatlashtirilgan va aqlli shaklga keltirmoqda, bu esa oddiy va takroriy vazifalarni mashinalar tomonidan bajarilishiga olib kelmoqda va shu tariqa ishlab chiqarishdagi bandlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Nemis olimlari tomonidan ishlab chiqarish sanoati ma'lumotlari asosida olib borilgan tadqiqotda aniqlanishicha, har bir yangi robot qo'shilganda o'rtacha ikki ishlab chiqarish ish o'rne qisqaradi. Bu shuni anglatadiki, 1994–2014-yillar oralig'ida Germaniyada taxminan 275 ming ishlab chiqarish ish o'rne robotlar bilan almashtirilgan.

Ikkinchidan, yo'naltirilgan texnologik o'zgarishlar nazariyasi nuqtai nazaridan, raqamli texnologiyalarga moslashish jarayoni yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talabni oshiradi, biroq past malakali ishchilarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Olimlarning o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, kompaniyalarning raqamli texnologiyalarga kiritgan investitsiyalari turli malaka darajasidagi xodimlar bandligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, har 100 ming Shveytsariya franki miqdoridagi raqamli investitsiya natijasida yuqori malakali ishchi o'rinlari 5,8 taga oshgan, o'rta va past malakali ishchilar soni esa 6,3 taga kamaygan.

O'zbekiston gig-iqtisodiyot sifatida tez sur'atlar bilan shakllanmoqda, chunki Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mehnatga layoqatli aholining to'rtidan bir qismi hozirda o'zini o'zi band qilgan (self-employed) shaxslar sifatida tasniflanmoqda.

Soliq qo'mitasi rasmiy Telegram kanalida bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 1-iyul holatiga o'zini o'zi band qilganlar soni 5,5 million kishidan oshgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilgi 3,5 million nafar fuqaroga nisbatan sezilarli o'sishni ifodalaydi.

Frilanserlar sonining eng yuqori o'sishi qayd etilgan uchta soha-maishiy xizmatlar, qishloq xo'jaligi xizmatlari va ishlab chiqarish xizmatlari sohalaridir.

Bu o'sish O'zbekiston hukumati tomonidan norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish va soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Avvalroq norasmiy sektorda faoliyat yuritgan, masalan, taksi va yetkazib berish xizmati haydovchilari, tozalash xizmatlari ko'rsatuvchilari, repetitorlar, savdogarlar va mayda tadbirkorlar asosan naqd pul aylanmasi asosida ishlagan, bu esa ularning soliq to'lovlarini kamaytirish yoki butunlay chetlab o'tish imkonini bergan.

Soliq qo'mitasi 2025-yil 2-iyul kuni e'lon qilgan bayonotida 800 mingga yaqin taksi va oziq-ovqat yetkazib berish xizmati xodimlari rasmiy ro'yxatga olinganini ma'lum qildi. Shuningdek, 208 ta taksi va yetkazib berish kompaniyalari soliq organlarining axborot tizimlariga to'liq integratsiya qilingan. Shu jarayon natijasida 2025-yilda davlat byudjetiga 7 million AQSH dollaridan ortiq qo'shimcha daromad tushgani qayd etilgan.

Bundan tashqari, soliq qo'mitasi gig-xodimlarning yillik daromadi 7 800 AQSH dollaridan oshgan taqdirda ulardan soliq ushlab qolinishini e'lon qildi. Solishtirish uchun, 2025-yil boshida O'zbekistonda aholining o'rtacha yillik daromadi 5000 AQSH dollaridan biroz yuqori deb baholangan.

Davlat soliq qo'mitasi keltirgan bu raqamlar 2025-yil boshida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi. Mazkur tashabbus doirasida yil yakuniga qadar 5 milliondan ortiq yangi ish o'rinlari yaratish rejalashtirilgan. Rejaga muvofiq, mahalla qo'mitalari vakillari aholi bandligini ta'minlashda asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, tadbirkorlik ruhini shakllantirish, qaramlik kayfiyatini kamaytirish va kam ta'minlangan oilalarni mehnat faoliyatida qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Berilgan ko'rsatkichlarga ko'ra O'zbekistonda gig-iqtisodiyot bosqichma-bosqich shakllanib borayotganini ko'rsatadi. O'zini o'zi band qilganlarning ko'payishi, soliqqa tortish tizimining kengayishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishi iqtisodiy faollikni oshirib, norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tish jarayonini tezlashtirmoqda (1-jadvaldag).


1-jadval. O'zbekistonda gig-iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari (2025-yil holatiga)

Ko'rsatkich	Miqdor	Izoh
O'zini o'zi band qilganlar soni	5,5 mln kishi	Bandlikning muhim qismi norasmiy sektordan rasmiy shaklga o'tdi
Soliq tizimiga ulangan kompaniyalar	208 ta	Gig-ishchilarni hisobga olish tizimi yaratilgan
Gig-xodimlar uchun yillik soliq chegarasi	7 800 AQSH dollari	Shundan ortiq daromad olganlar soliqqa tortiladi
Byudjetga tushgan qo'shimcha daromad	7 mln AQSH dollari	Norasmiy mehnatni rasmiylashtirish natijasida
Yaratilgan yangi ish o'rinlari	5 mln	"Har bir mahalla – tadbirkorlar makoni" tashabbusi asosida



Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonda gig-iqtisodiyot bosqichma-bosqich shakllanib borayotganini ko'rsatadi. O'zini o'zi band qilganlarning ko'payishi, soliqlar tizimining kengayishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishi iqtisodiy faollikni oshirib, norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tish jarayonini tezlashtirmoqda.

Ishchilar uchun an'anaviy bandlik va gig platformalarda ishlash imkoniyati mavjud bo'lgan sharoitda, ko'pchilikning gig platformalarni tanlashiga bir qator omillar sabab bo'ladi. Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, gig platformalarda faoliyat yuritayotganlarning sezilarli qismi — 23,3 foizi — ish jadvalining moslashuvchanligi tufayli bu yo'nalishni afzal ko'rgan (1-rasm). Bundan tashqari, qo'shimcha daromad olish istagi (17,8%), doimiy daromad manbalarining yetarli emasligi (14,3%) hamda mehnat faoliyatida mustaqillik va erkinlik (13,7%) kabi omillar ham gig iqtisodiyotiga kirishning asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.



1-rasm. Ishchilarning gig platformalarni tanlashidagi asosiy sabablar

Jahon banki tomonidan 2023-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirda dunyo miqyosida gig ishchilarning umumiy soni 154 million nafardan 435 million nafargacha yetadi. Bu esa global mehnat resurslarining qariyb 4,4 foizidan 12,5 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi. Tadqiqotda, shuningdek, gig ishchilar o'z faoliyatini dunyo bo'ylab faoliyat yuritayotgan 545 ta turli gig platformalarda amalga oshirayotgani ham qayd etilgan.

Gig iqtisodiyotining tadbirkorlik jarayonlariga ta'siri

Ma'lumki, mavhumlik (uncertainty) va tavakkalchilik (risk taking) tadbirkorlik faoliyatining ajralmas jihatlari hisoblanadi. Gig iqtisodiyot esa ushbu omillarga bir necha yo'llar bilan ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, u tadbirkorlik tajribasini shakllantirishga xizmat qilib, insonlarga o'z kuchini sinab ko'rish, yangi g'oyalarni amalda sinovdan o'tkazish va iqtisodiyotning turli sohalarida amaliy tajriba to'plash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, innovatsion faoliyatda tajriba o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, gig iqtisodiyot bu jarayonlarni tezroq, qulayroq va nisbatan kamroq xarajat bilan amalga oshirish imkonini beradi.

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan "Working without Borders" nomli tahliliy hisobotda qayd etilishicha, gig iqtisodiyoti mehnat bozorida ayollarning faol ishtirok etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayollarning gig platformalarda ishlashni tanlashiga asosan qo'shimcha daromad olish imkoniyati va ish jadvalining moslashuvchanligi sabab bo'ladi. Shuningdek, o'tkazilgan so'rov natijalari gig platformalarda faoliyat yuritayotgan ayollar ulushi 42,0 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilda umumiy mehnat bozorida ishtirok etayotgan ayollar ulushi (40,1 foiz)dan biroz yuqori ekanini ko'rsatgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mehnat bozorida tub o'zgarishlarga sabab bo'lib, yangi bandlik shakllarining shakllanishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda an'anaviy ish joylari bilan bir qatorda masofaviy ish, frilanserlik, gig platformalar orqali bandlik, onlayn xizmat ko'rsatish kabi faoliyat turlari keng tarqalmoqda. Ushbu jarayon mehnat munosabatlarini yanada moslashuvchan, innovatsion va natijaga yo'naltirilgan shaklga olib kelmoqda.



Yangi bandlik shakllari, bir tomondan, ishchi kuchining iqtisodiyotdagi ishtirokini kengaytirib, yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ikkinchi tomondan, raqamli texnologiyalar asosidagi bandlik tizimi daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy faollikni kuchaytirishda muhim omilga aylanmoqda.

Biroq, bu jarayon bilan bir qatorda mehnat huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash va bandlikning barqarorligini saqlab qolish zarurati ham kuchaymoqda.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi bandlik shakllari — bu nafaqat mehnat bozorining zamonaviy talablarga moslashuvi, balki iqtisodiy o'sish, ijtimoiy inklyuziya va innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jahon banki (World Bank). Working without Borders: The Promise and Peril of Online Gig Work. Washington, D.C., 2023.
2. International Labour Organization (ILO). World Employment and Social Outlook: The Role of Digital Labour Platforms in Transforming the World of Work. Geneva, 2021.
3. OECD. The Digital Transformation of Jobs and Skills. Paris, 2022.
4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W.W. Norton & Company, 2014.
5. Tapscott, D. The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. McGraw-Hill, 2015.
6. Manyika, J. et al. Independent Work: Choice, Necessity, and the Gig Economy. McKinsey Global Institute, 2016.
7. De Stefano, V. The Rise of the "Just-in-Time Workforce": On-Demand Work, Crowdwork, and Labour Protection in the "Gig-Economy". ILO Working Paper, 2016.
8. Bukht, R., & Heeks, R. Defining, Conceptualising and Measuring the Digital Economy. Development Informatics Working Paper No. 68, University of Manchester, 2017.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. PQ-3832-son, 2018-yil 3-iyul.
10. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. O'zbekiston mehnat bozori sharhi – 2024. Toshkent, 2024.
11. Xamidov, A. Raqamli iqtisodiyotda bandlikning yangi shakllari va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri. – "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, №2, 2023.
12. Karimov, B. O'zbekiston sharoitida gig iqtisodiyoti va raqamli bandlik rivojining istiqbollari. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy to'plami, 2024.
13. UNCTAD. Digital Economy Report 2023: Cross-border Data Flows and Development. United Nations, Geneva, 2023.
14. European Commission. Platform Work and the EU Labour Market. Brussels, 2022.
15. Khasanov, M., & Turaeva, D. Raqamli mehnat platformalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri. – "Iqtisodiyot va jamiyat" jurnali, №4, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>